


” Tasdiqlayman”  
11-umumiy o’rta ta’lim  
maktabi direktori:  
\_\_\_\_\_Fayzillayeva R.Z.

Chirchiq shahar  
11–umumiy o’rta ta’lim maktabining  
matematika fani o’qituvchisi  
M.M.Gavharovaning  
7-sinf algebra fanidan  
“Birhadlarni ko’paytirishga doir  
misollar yechish”  
mavzusidagi ochiq  
dars ishlanmasi



## **Mavzu: “Birhadlarni ko’paytirishga doir misollar yechish”**

Dars maqsadlari:

**Ta’limiy maqsad:** O’quvchilarni birhad, birhadning standart shaklida yozish, birhadlarni ko’paytirish mavzulariga oid olingan bilimlarini misollar yechish yordamida mustahkamlash.

**Tarbiyaviy maqsad:** O’quvchilarda Vatanni sevishga, osoishtalikni qadriga yetishga, mehnatni ulug’lashga, do’stona munosabatda bo’lish kabi fazilatlarni tarbiyalash

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Natural ko’rsatkichli daraja va uning xossalarini, birhad, birhadni ko’paytirishni bilish va mashqlarni bajarish jarayonida natural ko’rsatkichli daraja xossalaridan foydalana olish, ularni tadbiq eta olish ko’nikmasini rivojlantirish

Darsda foydalaniladigan jihozlar: plakatlar, chizmalar va tarqatma materiallar.

Darsda foydalaniladigan metodlar : muammoli vaziyat, yo’nalish berish, topqirlar uyini, “F S M U” metodi, savol-javob.

Dars turi: mustahkamlovchi

### **Darsning borishi:**

#### **Tashkiliy qism:**

Sinfni darsga tayyorlash, o’quvchilarni davomatini tekshirish, ko’rgazmali qurol va jihozlarni darsga hozirlash.

Uy vazifasini so’rash. Kichik guruhlarda ishlash tarqatma yordamida (6-ta kichik guruh)

- Ikki yoki bir nechta birhadlarni ko’paytirishda nima hosil bo’ladi?


- Birhadlarni standart shaliga keltirishni ac12c misolda tushuntiring ?
- Birhadning koeffitsiyenti deb nimaga aytiladi?  
 $-2xy$ ;  $2,45abc$   $\frac{2}{3}a^2b^3$

Natural ko'rsatkichli darajaning 5- xossasini misolda tushuntiring  
 $(-1)^{1000}$  kattami yoki  $(-1)^{1001}$  kattami?

Birhad deb nimaga aytiladi?

Birhadlarni ko'paytirishni misolda tushintirib bering?

**“Toifalash jadvali”**



III. Mavzuni bayoni Aziz o'quvchilar bizning bugungi darsimiz mavzusi ***“Birhadlarni ko'paytirishga doir misollar yechish”***. Sizlar bilan birgalikda shu mavzuga oid olingan bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

Birhadlarni ko'paytirishda yana birhad hosil bo'lishini bilib oldik. Sinfni guruhlarga ajratamiz

### “TOPQIRLAR UYINI”

- ✘ Misollar jadval asosida beriladi.
- ✘ Har bir misolga tayyor javoblar topiladi.
- ✘ Javoblarga tenglashtirilgan harflar, javob katakchalariga qo'yiladi.
- ✘ Tog'ri javoblar o'qiladi.

#### I guruh 233 va 234

$(3ab)(-2a^2b)$	$(-4x^2y)(-7xy^2)$	$(8ab^2)(\frac{1}{4}ac^2)$	$(6a^2b)(\frac{1}{3}bc^2)$	$(3a^2b^5c)(6a^3bc^2)$	$(7a^5b^2c)(-3ab^4c)$

$$2a^2b^2c^2 \quad \mathbf{K}, \quad -6a^3b^2 \quad \mathbf{E}, \quad 18 a^5b^6c^3 \quad \mathbf{D}, \quad -21 a^6b^6c^2 \quad \mathbf{V}$$

$$2 a^2b^2c^2 \quad \mathbf{I}, \quad 28 x^3y^3 \quad \mathbf{L}$$

## II guruh 235, 236 misollar

$(0,4x^5y^6z^2)(-1,2xyz^3)$	$(2,5n^4m^5r^2)(3nm^2r^5)$	$(-\frac{1}{3}m^2)(-24n)(4n)$	$(-\frac{1}{6}m^2)(-5mn)$

$(-\frac{1}{3}x^2y^3z)(-\frac{1}{2}xy^2z^3)$	$(-13a^2bc)(-5ab^2c)(-0,4abc^3)$	$(2\frac{1}{4}a^2b^5c^3)(-3\frac{1}{3}a^3b^2c^4)$

$32n^2m^3$  **R**,      $-7,5a^5b^7c^7$  **Y**,      $-0,48x^6y^7z^5$  **F**,      $-26a^4b^4c^5$  **I**,  
 $7,5n^5m^7r^7$  **A**,      $-15n^2m^3$  **O**,      $\frac{2}{3}x^3y^5z^4$  **B**

## III guruh 238, 239 misol

$(2a)^3$	$(-\frac{1}{3ab})^4$	$(3b^2)^4$	$(-abc)^5$	$(-2xyz)^3$	$(2a^3)^2$	$(-\frac{1}{4ab})^2$	$(5b)^2$


$25b^2$  **Y**,      $81a^4b^4$  **O**,      $4a^6$  **M**,      $81b^8$  **R**,  
 $-a^5b^5c^5$  **A**,      $8a^3$  **X**,      $-8x^3y^3z^3$  **Z**,      $16a^2b^2$  **I**

IV. Mustahkamlash: Qatorlar bilan ishlash 242- I- qator,  
243 misol II qator, 244-misol III qator.

Birinchi bajargan qator taqtimot qilib, doskada “F S M U” metodi bo’yicha tushuntiriladi, yani misolga fikrini bayon etadi, sabab ko’rsatadi, sababni asoslaydi, fikrini umumlashtiradi.

V. O’quvchilarni baholash “BBB” metodi

VI. Uyga vazifa: 245 misolni bajarish va qoidalarni yod olish



**Al - Xorazmiy**



***Abu Rayhon Beruniy***



**Mirzo Ulug'bek**